

**«AGROBANK» ATB TOMONIDAN JISMONIY SHAXSLARGA
AJRATILGAN ONLAYN KREDIT MABLAG‘LARI BO‘YICHA KREDITNI
QAYTMASLIK XATARINI SUG‘URTALASH TO‘G‘RISIDA**

«15» 08. 2024 y.

BOSH KELISHUV 01/80/1/048

Toshkent shahar

“MY-INSURANCE” AJ ST sug‘urta tashkiloti nomidan Ustav asosida ish yurituvchi jamiyat Bosh direktori M.B.Ko‘charov (keyinchalik matnda “Sug‘urtalovchi” deb ataluvchi) bir tomondan va “Agrobank” ATB nomidan 10.05.2024 yildagi 03-19/207-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisining o‘rinbosari v.b. F.Nasriyev (keyinchalik matnda “Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi” deb ataluvchi) ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar” va alohida “Tomon” deb ataluvchilar tomondan quyidagi mazmunda ushbu Bosh kelishuvni tuzdilar:

Bosh kelishuv bitimi predmeti:

Mazkur Bosh kelishuvga asosan Sug‘urtalovchi Bankning xududiy boshqarma va filiallari tomondan masofadan jismoniy shaxslarga bankning mobil ilovasi yoki bank xamkorlarining ilovalari hamda agrobank.uz va chakana.uz veb sahifalari orqali ajratiladigan onlayn tartibdagi tijorat kreditlari bo‘yicha kredit mablag‘larini qaytmasslik xataridan Sug‘urtalash ximoyasini taqdim etadi.

1. Jismoniy shaxslarga ajratilgan onlayn kredit mablag‘larini qaytmasslik xatarini Sug‘urtalash shartlari mazkur Bosh kelishuvga ilova qilingan ommaviy oferta Sug‘urta shartnomasi shartlari asosida amalga oshiriladi.

2. Bankning xududiy boshqarma va filiallari tomondan jismoniy shaxslarga masofadan onlayn kredit ajratish Bank Boshqaruvining Qarori bilan tasdiqlangan “Agrobank” tomondan jismoniy shaxslarga bankning mobil ilovasi yoki bank xamkorlarining ilovalari hamda agrobank.uz va chakana.uz veb sahifalari orqali ajratiladigan “Onlayn tijorat kreditlari berish Tartibi” (keyingi o‘rinlarda Tartib) va tegishli konun xujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Sug‘urtalangan kreditlar va joriy qilingan kreditlash tartiblarining shartlari (shu jumladan, kiritilgan o‘zgartirishlar) bankning veb sahifalarida e‘lon qilib boriladi.

3. Onlayn kredit ajratish bo‘yicha buyurtma bergan mijoz tomondan agrobank.uz va chakana.uz veb sahifasi yoki mobil ilovasi orqali kredit ta‘minoti sifatida sug‘urta kompaniyasini tanlash hamda mazkur Bosh kelishuv bilan tasdiqlangan sug‘urta bo‘yicha oferta shartnomasini akseptlashi bilan Sug‘urta shartnomasi tuzilgan, taraflar o‘zaro xuqukiy munosabatga kirishgan deb hisoblanadi.

4. Sug‘urta bo‘yicha ommaviy oferta shartnomasi mijoz tomondan akseptlangandan so‘ng avtomatik ravishda ajratilayotgan kredit mablag‘ining davriligiga qarab 1 (bir) yilga 0.5%, 2 (ikki) yilga 1% va 3 (uch) yilga bo‘lgan davrgacha 1,5% sug‘urta pulining miqdorida sug‘urta mukofoti hisoblanib, Sug‘urtalovchining kuyidagi:

“Agrobank” ATB Toshkent shahar xududiy boshqarmasi MFO:00394 dagi
20208000804786066094 bank hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi.

5. Tomonlar Kredit qaytmasslik xataridan sug‘urtalash ommaviy oferta shartnomasida quyidagi shartnomaviy munosabatlar, xususan: sug‘urta puli, sug‘urta mukofoti, sug‘urta hodisasi, sug‘urta to‘voni to‘lash shartlari, sug‘urta shartnomasining amal qilish va bekor qilish tartiblari, subrogatsiya, korrupsiyaga qarshi shartlar, tomonlarning huquq va majburiyatlari, javobgarligini belgilash yuzasidan o‘zaro kelishib oldilar.

6. “Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi” sug‘urta masalalari bo‘yicha “Sug‘urtalovchi”dan maslahatlar olish, bank filiali va sug‘urta tashkiloti filiali o‘rtasida sug‘urta to‘voni to‘lash masalasida kelib chiqqan nizoni muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan hal etish, mazkur Bosh kelishuvga o‘zgarishlar va qo‘shimchalar kiritish taklifini berish huquqiga ega.

7. Sug'urta shartnomasi shartlariga ko'ra, sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa, "Agrobank" ATB Bosh ofisi yoki filiallari tomonidan voqea sodir bo'lganidan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida o'ziga ma'lum holatlar va sabablarni ko'rsatgan holda "MY-INSURANCE" AJ ST sug'urta tashkiloti Bosh ofisiga yozma ravishda xabar beriladi.

8. Mazkur kelishuv va Kredit qaytmaslik xataridan sug'urtalash ommaviy oferta shartnomasida ko'rsatilmagan o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

9. Tomonlar o'rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqqan bahslar yoki kelishmovchiliklar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan hal etiladi, ularni hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda javobgar joylashgan hududdagi sudga murojaat qilinadi.

10. Bosh Kelishuv o'zbek tilida 2 (ikki) nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va tomonlarga bir nusxadan beriladi. Bosh kelishuvga ilova qilingan sug'urta shartnomasi mazkur kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

SUG'URTALOVCHI:

"MY-INSURANCE" AJ ST

Manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani kichik Mirobod

ko'chasi 95 uy

Tel.: 71 205 19 19

H/R: 2020 8000 1047 8606 6001

Bank: TIF Milliy bank "Sayoxat" BXM

MFO 00450


STIR 207 002 342

KTUF

Bosh direktor

 M.B.Ko'charov

mo'.



SUG'URTA QILDIRUVCHI:

"Agrobank" ATB



Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b

 F.Nasriyev

